

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджуроев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH	317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI.....	332
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN.....	340
Djumabayeva Dilobar Asatillayevna	
BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI.....	347
Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	353
Meyliyeva Shoxista Rustamovna	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	358
Усманова Азиза Баходировна	
O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ	363
Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich	
HUUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH.....	371
Kosimov Bobir Abdigafarovich	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	376
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	383
Мурадов Алишер Курбанбаевич	
ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПАРАДИГМЫ АГРОТУРИЗМА КАК УСЛОВИЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	390
Усманова Диляфруз Каршиевна	
WAYS TO IMPROVE THE REGIONAL STRUCTURE OF THE INDUSTRY OF NAVAI REGION	396
Uralov Eliboy Omonovich	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG'INI TAKOMILLASHTIRISHDA SAMARALI XORIJIY TAJRIBA	400
Safarova Shahzoda	
НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА.....	405
Рафиева Зарина Хусановна	
INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	410
Djuraeva Guzal Shavkatovna	



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	414
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	418
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СЛОВАРЯ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	425
Рихсибоева Нигора Низомиддин кизи, Тоймухамедова Дилобар Хуснитдиновна	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	434
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
KAM SUV TALABCHAN SEMENT OLIISH UCHUN RATSIONAL TARKIBNI TADQIQ QILISH.....	440
X.V. Yusupov, Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
ENHANCING THE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN EMERGING ECONOMIES: EVIDENCE FROM MURABAHA-BASED INSTRUMENTS AND PUBLIC-PRIVATE INVESTMENT MODELS.....	445
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	453
Ibragimov Husen Ismailovich	
STUDIES ON OBTAINING AZOSUPERPHOSPHATE BY TREATING HIGH-CARBONATE, LOW-GRADE CENTRAL KYZYLKUM PHOSPHORITES WITH VARIOUS DOSAGES OF AMMONIUM SULFATE AND SULFURIC ACID.....	457
Saidov Hakimboy O'rinboyevich	
HUDUDIIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	463
Avliyaqulov Xudoyberdi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
NAVOIY VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINI BANDLIK VA INVESTITSIYA OQIMLARI ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	466
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	474
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIIY MEKANIZMLARI VA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Rustamov Umidjon Xayitboyevich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	485
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI.....	494
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li, Saydullayeva Dilnoza Komil qizi	
BENTONIT YORDAMIDA ISHLATILGAN TURBINA MOYLARINI TOZALASH ASOSIDA BAZAVIY MOY OLIISH IMKONIYATLARI.....	502
Salomatov Behruz To'ymurodovich, Panoyev Nodir Shavkatovich, Safarov Jasur Alijon o'g'li	
INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH VA KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGI.....	506
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	



CHEMICAL-MINERALOGICAL CHARACTERIZATION AND DRY BENEFICIATION TECHNOLOGY OF FELDSPAR FROM THE SULTAN UVAYS DEPOSIT	512
Buranova Dinara Baxtiyarovna	
TRANSPORT LOGISTIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHISH JARAYONIDAGI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	520
Jabborov Islom Xusan o'g'li	
MAGNIT O'ZAGI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORLARDA MEXANIK ZO'RIQISH VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH HAMDA TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA ELLIPS KESIMNING OPTIMAL PARAMETRLARINI TANLASH.....	524
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ОТ ДЕКЛАРАЦИЙ К ДЕЙСТВИЮ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ БАРЬЕРЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	531
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI ISHINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI BASHORAT QILISH VA YAXSHILASH.....	536
Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjon o'g'li, Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI QAYTARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN RISKGA ASOSLANGAN MODEL	542
Tuxliyev Bozor Karimovich, Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich	
O'ZBEKISTONDA AGROFOTOVOLTAIKA: ILMIY-AMALIY RIVOJLANISH, PILOT LOYIHALAR VALIDATSIYASI VA ME'YORIY-HUQUQIY ISTIQBOLLAR	552
Shog'o'chqorov Sanjar Qodir o'g'li	
MINTAQAVIY INFRATUZILMANING IJTIMOYIY TABAQALASHUVGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	563
Babjanova Dilfuza Abdurasulovna	
SANOAT KORXONALARIDA KLASTERLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI	568
Xusanova Malohat Mingnorovna	
ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФИНАНСОВОМ УЧЁТЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОПЕРЕРАБОТКИ.....	574
Икрамова Хилола Ровшан кизи	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	583
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	590
Fayzullayev Nurulla Baxromovich	
TIJORAT BANKLARIDA YASHIL DEPOZITLAR VA YASHIL KREDITLAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI .	596
Berdiyev Akram O'ktamovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI	601
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi	
DAVLATNING IJTIMOYIY SOHA MUASSASALARI MOLIVAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	608
Hasanov To'liqin Axmatovich	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH MARKAZLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	616
Urazov Sadulla Shodiyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	621
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	625
Junaydullaev Mels Asliddin o'g'li	
ECONOMIC SOLUTIONS OF THE COLLECTOR SYSTEM FOR THE EFFECTIVE USE OF THE UNDERGROUND ENVIRONMENT IN URBAN PLANNING.....	630
Usmonov Quvvat Turdievich, Orazbayeva Nazokat Maksetovna, Usmonova Madina Quvvat qizi	
SUN'IIY INTELLEKT VA MASHINALI O'RGANISH TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI HUDUDLAR VA TARMOQLAR KESIMIDA TAHLIL QILISH	635
Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING ROLI	642
P.SH. Usmonov	
ASINXRON MOTORLARDAGI TASHQI SOCHILMA MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH ORQALI DIAGNOSTIKA QILISH.....	646
Pirmatov Nurali, Bekishev Allabergen, Kurbonov Najmiddin, Jalilov Akobir	
ОСОБЕННОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ	652
Х.Б. Убайдуллаев	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	659
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich

Namangan davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Email: t.o.rapikov@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6197-2094

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining 2021–2025-yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining yillar kesimida ortib borishi kichik biznesning iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi bilan bog‘liq holda yoritilgan. Tahlil natijalari kichik biznes subyektlarida investitsiya jarayonlarining faollashuvi ularning barqaror rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish bazasining mustahkamlanishi va hududiy iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, investitsiya faoliyati, asosiy kapital, asosiy kapitalga investitsiyalar, investitsiya hajmi, investitsiya dinamikasi, rivojlanish tendensiyalari.

Аннотация: В данной статье проанализированы тенденции развития инвестиционной деятельности субъектов малого бизнеса за 2021–2025 годы. В исследовании рассматривается рост объема инвестиций в основной капитал в разрезе лет, а также его связь с экономической активностью малого бизнеса, расширением производственных возможностей и эффективным использованием финансовых ресурсов. Результаты анализа показывают, что активизация инвестиционных процессов в малом бизнесе является важным фактором его устойчивого развития, создания новых рабочих мест, укрепления производственной базы и обеспечения регионального экономического роста.

Ключевые слова: малый бизнес, субъекты предпринимательства, инвестиционная деятельность, основной капитал, инвестиции в основной капитал, объем инвестиций, динамика инвестиций, тенденции развития.

Abstract: This article analyzes the development trends in the investment activity of small business entities during 2021–2025. The study examines the annual growth of investments in fixed capital and its relationship with the economic activity of small businesses, expansion of production capacity, and efficient use of financial resources. The results indicate that the intensification of investment processes in small business plays an important role in ensuring sustainable development, creating new jobs, strengthening the production base, and supporting regional economic growth.

Keywords: small business, business entities, investment activity, fixed capital, investments in fixed capital, investment volume, investment dynamics, development trends.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida bandlikni ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda alohida o‘rin tutadi. Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda kichik biznesning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan uning investitsiya faolligi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi va asosiy kapitalni yangilash imkoniyatlariga bog‘liqdir. Shu sababli kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ularning rivojlanish darajasini baholashda muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Investitsiyalar kichik biznes faoliyatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda xizmat ko‘rsatish turlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini shakllantiradi. Bu esa kichik biznes subyektlarining nafaqat joriy iqtisodiy natijalariga, balki kelgusidagi barqaror o‘shish imkoniyatlariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [1].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari investitsiya faolligining ortib borayotgani kuzatilmoqda. 2021–2025-yillar davomida kichik biznes tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



hajmining izchil o'sishi mazkur sohada iqtisodiy imkoniyatlar kengayayotganini ko'rsatadi. Jumladan, investitsiya hajmining yilma-yil oshib borishi kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash, faoliyat ko'lamini kengaytirish va hududiy iqtisodiyotdagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda 2021–2025-yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi tahlil qilinadi, ularning o'sish sur'atlari baholanadi hamda investitsiya faolligining kichik biznes rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kichik biznesda investitsiya jarayonlarining mazmuni, investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, investitsiyalarning ishlab chiqarish va hududiy rivojlanishga ta'siri hamda investitsiya faolligini yanada oshirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatini o'rganish iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsion yangilanish va hududiy iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liq holda talqin qilinadi. Ilmiy yondashuvlarda investitsiyalar faqat moliyaviy mablag'larni jalb etish jarayoni sifatida emas, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini shakllantiruvchi strategik omil sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznesda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning muhim manbai hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariyalarda investitsiya faoliyati tadbirkorlik subyektlarining o'sish imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va bozordagi faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Kichik biznes uchun investitsiyalarning ahamiyati yanada yuqori bo'lib, ushbu subyektlar ko'pincha cheklangan moliyaviy resurslar, garov ta'minoti yetishmasligi va kredit olishdagi murakkabliklar bilan to'qnashadi. Jahon banki tadqiqotlarida ham kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish ularning o'sishi va iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlovchi muhim siyosiy yo'nalish sifatida qayd etiladi [2].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, bank kreditlari bilan bir qatorda lizing, kafolat jamg'armalari, venchur moliyalashtirish, faktoring va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. OECDning "Financing SMEs and Entrepreneurs 2024" hisobotida kichik va o'rta biznes moliyalashtirish tendensiyalari, qarz va kapital manbalari, moliyaviy sharoitlar hamda davlat siyosati vositalari tahlil qilingan [3]. Hisobotda kichik biznesning barqarorligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ko'rsatilgan. UNCTAD tadqiqotlarida investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishning muhim omili sifatida baholanadi [4]. Xususan, xalqaro amaliyotda investitsiya muhitini yaxshilash, biznes jarayonlarini soddalashtirish va raqamli davlat xizmatlarini kengaytirish investitsion faollikni oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari uchun ham muhim bo'lib, ular investitsiyaga kirish imkoniyatlari kengayganda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini tezroq rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes investitsiya faoliyatining rivojlanishi bir nechta asosiy yo'nalishlar bilan bog'liq: moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, investitsiya muhitining qulayligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, infratuzilma rivoji, texnologik yangilanish va korxonalarining boshqaruv salohiyati [5]. Ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar kichik biznesning uzoq muddatli ishlab chiqarish bazasini shakllantiradi. Bu esa korxonalarining iqtisodiy barqarorligi, mahsulot sifati, raqobatbardoshligi va hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini baholashda statistik, taqqoslama va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy axborot bazasini 2021–2025-yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini ifodalovchi statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlar asosida investitsiya hajmining yillar kesimidagi o'zgarishi, o'sish sur'atlari va umumiy rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining mutlaq ko'rsatkichlari o'rganildi. Bunda 2021-yil bazaviy davr sifatida qabul qilinib,



keyingi yillardagi investitsiya hajmi bilan solishtirildi. Bu yondashuv kichik biznesda investitsiya faolligining qaysi davrlarda yuqori sur'atlarda rivojlanganini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, maqolada dinamik tahlil usuli qo'llanilib, investitsiyalar hajmining yilma-yil o'zgarishi baholandi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi: investitsiyalar hajmining mutlaq o'sishi, o'sish sur'ati, qo'shimcha o'sish sur'ati va umumiy dinamik o'zgarish darajasi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyati faqat miqdoriy jihatdan emas, balki rivojlanish tezligi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilindi.


Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur usul yordamida 2021–2025-yillar oralig'ida investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlar o'zaro solishtirildi hamda eng yuqori o'sish kuzatilgan davrlar aniqlashtirildi. Bu esa kichik biznes subyektlarida investitsiya jarayonlarining faollashuvi qaysi yillarda kuchayganini ilmiy asoslashga xizmat qildi. Maqolada grafik tahlil usulidan ham foydalanildi. Kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi diagramma orqali ifodalandi. Grafik tasvir ma'lumotlarning ko'rgazmaliligini oshirib, investitsiya hajmining 2021–2025-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini aniq ko'rsatishga yordam berdi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv tanlandi. Chunki kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyati alohida iqtisodiy jarayon emas, balki ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy resurslar, bandlik, hududiy rivojlanish, texnologik yangilanish va raqobatbardoshlik bilan bevosita bog'liq kompleks jarayon hisoblanadi. Shu sababli investitsiya hajmining o'sishi kichik biznesning umumiy rivojlanish salohiyatini oshiruvchi muhim omil sifatida baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini statistik ma'lumotlar, dinamik o'zgarishlar va grafik tahlil asosida baholashga qaratildi. Mazkur yondashuv asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'sish xususiyatlarini aniqlash, ularning kichik biznes rivojlanishidagi iqtisodiy ahamiyatini ochib berish hamda kelgusida investitsiya faolligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini baholashda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar korxonalarining ishlab chiqarish bazasini kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish ko'lamini oshirish hamda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi, trln. so'm¹

Ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2025-yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 109,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 127,6 trln so'mga, 2023-yilda 176,6 trln so'mga, 2024-yilda 265,7 trln so'mga, 2025-yilda esa 362,9 trln so'mga yetgan [6].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga investitsiyalari 253,7 trln so'mga oshgan. Ya'ni, 2025-yilda investitsiyalar hajmi 2021-yilga nisbatan 3,3 barobardan ortiq ko'paygan. Bu holat kichik biznesda investitsiya faolligi sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi. Yillar kesimida o'sish dinamikasi ham ijobiy ko'rinishga ega. 2022-yilda investitsiyalar hajmi 2021-yilga nisbatan 18,4 trln so'mga oshgan bo'lsa, 2023-yilda bu o'sish 49,0 trln so'mni tashkil etgan. Eng yuqori mutlaq o'sish 2024–2025-yillarda kuzatilgan [6]. Xususan, 2024-yilda investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan

1 Manba: statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

89,1 trln so'mga, 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan 97,2 trln so'mga ortgan.

Mazkur o'sish kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mavjud moddiy-texnik bazani yangilash va yangi faoliyat yo'nalishlarini shakllantirish jarayonlari faollashganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda investitsiyalar hajmining keskin ortishi kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchayib borayotganini hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan uzoq muddatli rivojlanishga qaratilgan kapital qo'yilmalar ko'payganini ko'rsatadi.

Investitsiya hajmining oshishi kichik biznesning barqaror rivojlanishiga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, yangi ishlab chiqarish vositalariga mablag' yo'naltirilishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, texnologik yangilanish mahsulot sifati va tannarxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, investitsiya faolligi yangi ish o'rinlari yaratilishi va hududiy iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, asosiy kapitalning kengayishi kichik biznes subyektlarining bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi [7].

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillarda kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyati izchil rivojlangan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining barqaror o'sib borishi kichik biznesning ishlab chiqarish, moliyaviy va innovatsion salohiyati kengayayotganini anglatadi. Shu bois, kichik biznesda investitsiya jarayonlarini yanada qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlar kesimida investitsiya faolligini oshirish kelgusida iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, mazkur ko'rsatkich 2021-yilda 109,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 362,9 trln so'mga yetgan. Bu esa qisqa davr ichida kichik biznes subyektlarining investitsiya faolligi sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

Investitsiyalar hajmining o'sishi kichik biznesning ishlab chiqarish bazasini kengaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda investitsiya hajmining keskin ortishi kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi roli ortib borayotganini va ularning uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilgan faoliyati faollashganini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanishi faqat moliyaviy mablag'lar hajmining ko'payishi bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, raqobatbardoshlik, bandlik darajasi va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kichik biznesda investitsiya jarayonlarini tizimli qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga investitsiya kiritish imkoniyatlarini kengaytirish uchun uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida kichik biznes subyektlari uchun investitsiya loyihalarini tayyorlash, biznes-reja ishlab chiqish va moliyaviy boshqaruv bo'yicha maslahat xizmatlarini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, hududlarda kichik biznesning investitsiya faolligini oshirish uchun sanoat zonolari, kichik sanoat hududlari, logistika markazlari va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

To'rtinchidan, kichik biznes subyektlari tomonidan kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bunda investitsiya hajmi bilan bir qatorda ishlab chiqarish hajmi, foyda, yangi ish o'rinlari, eksport imkoniyatlari va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq [8].

Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar, energiya tejankor uskunalari va innovatsion ishlab chiqarish yo'nalishlariga investitsiya kiritayotgan kichik biznes subyektlarini qo'shimcha rag'batlantirish kelgusida ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalari ijobiy baholanadi. Asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning ortib borishi kichik biznesning iqtisodiy salohiyati kengayayotganini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu jarayonni moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash mamlakatda kichik biznesning barqaror o'sishi va hududiy iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. Washington, D.C.: World Bank, 2024.
2. World Bank Group. SMEs Finance. Washington, D.C.: World Bank Group.
3. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. Geneva: United Nations, 2024.
5. Asian Development Bank. Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor 2024. Manila: Asian Development Bank, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari, 2025-yil yanvar–dekabr.
7. International Finance Corporation. MSME Finance. Washington, D.C.: IFC, World Bank Group.
8. World Bank Group. Uzbekistan Enterprise Survey 2024. Washington, D.C.: World Bank Group, 2025.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100